



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SO'NGGI YILLARDAGI IQTISODIY O'SISHLAR TAHLILI VA UNING TAMOYILLARI

Xolmurzayev Jasurbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-3218-0847

xolmirzayevj561@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning XXI-asrdagi iqtisodiy o'sishi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, investitsiyalar hajmi va mehnat unumdorligi kabi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ko'rib chiqilgan. Olingan natijalar iqtisodiy o'sishning ilmiy nazariyalari, xususan Solow iqtisodiy o'sish modeli va boshqa zamonaviy iqtisodiy yondoshuvlar bilan taqqoslangan. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, mavjud muammolar va kelgusidagi rivojlanish yo'llari yoritilishi bilan birga yaqin 3 – 4 yil uchun ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlar bashorat qilingan. Maqola natijalari mamlakat iqtisodiy siyosatini baholash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yalpi ichki mahsulot, inflatsiya, mehnat unumdorligi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, Solow iqtisodiy o'sish modeli.

АНАЛИЗ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ И ЕГО ПРИНЦИПЫ

Холмурзаев Жасурбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируется экономический рост Узбекистана в XXI веке. В ходе исследования были рассмотрены основные макроэкономические показатели, такие как темпы роста валового внутреннего продукта (ВВП), уровень инфляции, объем инвестиций и производительность труда. Полученные результаты были сопоставлены с научными теориями экономического роста, в частности с моделью экономического роста Солоу и другими современными экономическими подходами. Также были выявлены факторы, влияющие на устойчивое развитие экономики Узбекистана, освещены существующие проблемы и возможные пути дальнейшего развития, а также представлены прогнозы некоторых экономических показателей на ближайшие 3–4 года. Результаты статьи могут служить основой для оценки экономической политики страны и формирования научно обоснованных выводов.

Ключевые слова: валовой внутренний продукт, инфляция, производительность труда, макроэкономические показатели, модель экономического роста Солоу.

ANALYSIS OF ECONOMIC GROWTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN RECENT YEARS AND ITS PRINCIPLES

Xolmurzayev Jasurbek

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the economic growth of Uzbekistan in the 21st century. During the research, key macroeconomic indicators such as the growth rate of Gross Domestic Product (GDP), the level of inflation, the volume of investments, and labor productivity were examined. The obtained results were compared with scientific theories of economic growth, particularly the Solow economic growth model and other modern economic approaches. In addition, the factors influencing the sustainable development of Uzbekistan's economy were identified, existing problems and future development paths were discussed, and certain economic indicators for the next 3–4 years were forecasted. The results of the article serve to evaluate the country's economic policy and to draw scientifically grounded conclusions.*

Keywords: *gross domestic product (GDP), inflation, labor productivity, macroeconomic indicators, Solow economic growth model.*

Kirish.

So'nggi o'n yilliklarda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari ko'plab mamlakatlar uchun asosiy muvaffaqiyat mezonini sifatida qarab kelinmoqda. Biroq yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sishi har doim ham iqtisodiyotning sifat jihatidan rivojlanayotganini yoki aholi farovonligining real oshayotganini to'liq aks ettirmaydi. Shu bois iqtisodiy o'sishni nafaqat statistik raqamlar orqali, balki ilmiy iqtisodiy nazariyalar orqali va strukturaviy ko'rsatkichlar asosida baholash zaruriyati tobora kuchayib bormoqda. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.Karimov (2001) ta'kidlab o'tganlaridek: "Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari haqida gapirganda... uning mezonlariga va eng avvala, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'sishlar iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir so'z bilan aytganda, amaliy hayotimizni yuksaltirishga olib kelishi lozim".

O'zbekiston Respublikasi so'nggi o'n besh yil davomida nisbatan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini namoyon etib kelmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mazkur davrda yalpi ichki mahsulot hajmi barqaror oshib borgan. Ushbu statistik ko'rsatkichlarga asoslangan holda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev (2017) shunday degandilar: "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir". Biroq, ushbu o'sish qanchalik darajada intensiv xarakterga ega ekani, ya'ni texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligi hisobiga ta'minlanganmi yoki asosan ekstensiv omillar – kapital qo'yilmalar va resurslardan foydalanish orqali yuzaga kelganmi degan masala hali-honuz ochiq qolmoqda. Shuningdek, inflatsiya darajasi va real daromadlar o'rtasidagi tafovut iqtisodiy o'sish natijalarini baholashda muhim savollarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonning so'nggi 15 yildagi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda ularni ilmiy iqtisodiy o'sish modellari va nazariyalari bilan taqqoslashdan iborat. Tadqiqotda yalpi ichki mahsulot o'sishi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, inflatsiya darajasi, investitsiyalar va mehnat unumdorligi kabi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rganiladi. Statistik va taqqoslama tahlil usullaridan foydalangan holda, iqtisodiy o'sish barqarorligi va sifat darajasi bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarishga harakat qilinadi. Yuqoridagi makroiqtisodiy dinamikalariga tayanib, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun qisqa muddatli (2026-2028 yillar) prognoz shakllantirish mumkin. Agar inflyatsiya darajasi 7-9 foiz oralig'ida saqlanib qolsa va yalpi ichki mahsulotning nominal o'sishi

yillik 5-6 foizni tashkil etsa, real iqtisodiy o'sish sur'ati 2-3 foizdan oshmasligi mumkin. Bu esa nominal YaIM o'sishi fonida real iqtisodiy farovonlikning sekin o'sishini anglatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Darhaqiqat iqtisodiy o'sish va uning tahlili davlat iqtisodiyoti va yaqin kelajakdagi iqtisodiy hodisalarni oldindan baholash uchun muhim vazifani bajaradi. Bunday iqtisodiy o'sish va uning tahliliga oid ishlarda keltirilgan. Misol uchun M.D.Usmonov va boshqalar (2024) "Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar" ilmiy maqolasida iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omillar va barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar bir qator yoritib o'tilgan. Bundan tashqari F.F.Rustamova (2025) o'zining "O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos xususiyatlari" maqolasida yurtimizning iqtisodiy o'sishini baholagan hamda ba'zi takliflarni ham keltirib o'tganlar. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining ilmiy nazariy asoslari T.T.Jo'rayevning (2017) "Iqtisodiyot nazariyasi (o'quv qo'llanma)" nomli kitobida to'liq bayon etilgan bo'lib, unda asosiy iqtisodiy o'sishni baholash uchun ko'plab metodlar keltirilgan.

Jahon miqyosida esa ko'plab mashhur olimlar o'zlarining bu sohada qilgan ilmiy ishlari orqali iqtisodiy o'sish tushunchasini yanada yoritib, nimalar aslida iqtisodiy o'sishga sabab bo'lishini to'liqroq bayon etishgan. Bularga R.M.Solowning (2000) "Growth Theory: An Exposition" asari, R.E.Lucasning (2002) "Lectures on Economic Growth" kitobi hamda S.Kuznetsning (1966) "Modern Economic Growth: Rate, Structure and Spread" asarini misol qilib olishimiz mumkin. Sababi mazkur asarlarda zamonaviy iqtisodiy o'sish tushunchalari har tomonlama tahlil qilingan va juda ko'p olimlar tomonidan tan olingan. Bu adabiyotlarga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, R.Solow (2000) o'z asarida mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi faqat kapital va mehnat bilan emas, balki texnologik rivojlanish darajasi bilan belgilanishi kerak ekanligini isbotlab bergan. R.E.Lucas (2002) esa o'z asarida inson kapitalining mamlakatlar o'rtasidagi boylik farqini tushuntirishdagi rolini tahlil qiladi. Kitobda "nima uchun ba'zi davlatlar boy, ba'zilari esa kambag'al?" degan savolga javob izlanadi. Bular bilan bir qatorda chet ellik ilmiy izlanuvchilar ham ko'plab iqtisodiy o'sish tahlili to'g'risida maqolalar chop etgan bo'lib eng mashhurlaridan A.Vantilaning "Analysis of the Determinants of Economic Growth: An Empirical Study on the EU-28 Countries" va T.Havranek, R.Horvath va A.Zeynalovning (2012) "Natural Resources and Economic Growth: A Meta-Analysis" maqolalarini olsak bo'ladi. Bu maqolalarda real statistik ma'lumotlar asosida "EU-28 mamlakatlarida iqtisodiy o'sishni qaysi omillar belgilaydi?" degan savolga javob izlagan va ularning yakuniy xulosasiga ko'ra iqtisodiy o'sish investitsiya, ta'lim va savdo ochiqligiga bog'liq ekanligini statistik jihatdan isbotlagan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

2010 – 2016 yillar oralig'ida O'zbekiston iqtisodiyoti yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etdi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu davrda YaIM o'sishi 7-8 foiz atrofida bolgan. Bu kursoratkich mintaqaviy darajada nisbatan yuqori natija hisobladi. Ushbu davr oralig'ida eng yuqori o'sish 2007-yilda rekord darajadagi 9,47% o'sish qayd etilgandi. 2011-yilda o'sish sur'ati 9% ni tashkil etdi va keyingi yillarda (2012 – 2015) bu ko'rsatkich 8% atrofida saqlandi. 2016-yil natijalariga ko'ra, iqtisodiy o'sish 7,8% ni tashkil qilgan. Sohalar bo'yicha o'sish (2016-yil holatiga ko'ra):

- Sanoat: 7-8% atrofida o'sdi.
- Qurulish sohalari: 14-16% lik yuqori o'sish sur'atini korsatdi.
- Xizmat ko'rsatish: 12,4% ga o'sdi.
- Qishloq xo'jaligi: 6-7% lik o'sish qayd etildi.

Iqtisodiy o'sish asosan sanoatni modernizatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilish hisobiga ta'minlangandi. Shu bilan birga, nodavlat sektorlarining ulushi ortib borishi evaziga 2016-yilga kelib band aholini 81,8% qismi aynan shu sektorda faoliyat yuritgan deyiladi ko'plab manbalarda. Biroq, mazkur o'sish sifat

ko'rsatkichlari va uning real iqtisodiy samaradorligi masalasi alohida tahlilni talab qiladi. Mazkur davrda iqtisodiy o'sish asosan davlat investitsiyalari va yirik infratuzilma loyihalari hisobiga ta'minlangan. Kapital qo'yilmalarining yuqori darajasi Solow modeli nuqtai nazaridan qisqa muddatli o'sish sur'atlarini oshirishi mumkin, biroq texnologik taraqqiyot va smaradorlik omillari yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda uzoq muddatli barqaror o'sish cheklangan boladi.



1-rasm. 2010 – 2016 yillar oralig'idagi sohalar bo'yicha iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Eksport tarkibida xomashyo (oltin, gaz, paxta) ulushining yuqoriligi iqtisodiyotning diversifikatsiya darajasi past bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa iqtisodiy o'sishning tashqi bozorlarga qaramligini kuchaytirgan. Shuningdek, mazkur davrda oralig'ida iniflayatsiya darajasi ikki xonali ko'rsatkichlarda bo'lgan yillar ham mavjud bo'lib, nominal YaIM o'sishi va real iqtisodiy o'sish o'rtasidagi tafovutni yuzaga keltirgan. Shu sababli, 2005 – 2016 yillardagi yuqori YaIM o'sishini to'liq ravishda iqtisodiy rivojlanish deb baholash bahslii masala hisoblanadi. O'sish sur'atlari yuqori bo'lgan bo'lsa-da, uning tarkibiy va institsional sifati cheklangan bo'lgan.

2017 – 2020 yillardagi iqtisodiy liberallashtirish davri. 2017 – 2020 yillar O'zbekiston iqtisodiyotida tub o'zgarishlar boshlangan davr sifatida ajralib turadi. Bu davrda amalga oshirilgan iqtisodiy liberallashtirish siyosatlarini mamlakatda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni yo'lga qo'yish maqsadida qabul qilindi. Xususan, valyuta kursini erkinlashritirish, narxlarni liberallashtirish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar uchun sharoitni yaxshilash, shuningdek, tashqi savdoni kengaytirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilgan. Ushbu islohatlar 2017 – 2020 yillar davomida mamlakat ichki iqtisodiyotining global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvini kuchaytirishga xizmat qildi.

Asosiy o'zgarishlar va globallashtirish tendensiyalari:

- Tashqi savdoning liberallashtirishi: Valyuta erkin konvertatsiya qilindi, eksport-import bojlari soddalashtirildi, qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalari jonlantirildi.

- Investitsiyaviy jozibadorlik: Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq va bojxona imtiyozlari berildi, erkin iqtisodiy zonalar soni ko'paytirildi.
- Xalqaro integratsiya: Jahon Savdo Tashkiloti (JST) bilan muzokaralar faollashdi, mintaqaviy iqtisodiy loyihalarda ishtirok etish maqsad qilib qoyildi.
- Tarkibiy islohatlar: Davlat korxonalarini modernizatsiya qilish va xususiyashtirish jarayonlari boshlandi.

Valyuta siyosatining liberallasuvi natijasida milliy valyuta kursi erkin shakllana boshladi, bu esa qisman eksport salohiyatini oshirish va tashqi investitsiyalarni jalb qilishga yordam berdi. Biroq shu bilan birga inflyatsiya bosimi kuchaydi, chunki import muhsulotlarining narxlari oshdi. Natijada nominal YaIM o'sishi fonida real daromoadning pasayishi kuzatildi. Masalan rasmiy statistik ma'lumotlarda 2018 – 2019 yillarda YaIM ning nominal o'sishi davom etgan bo'lsa-da, inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan yillar real o'sish sur'ati kamayishiga ijobiy ta'sir qildi.

O'zbekiston bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2017 – 2020 yillardagi liberallasuv jarayoni iqtisodiyotning struktural elastikligini oshirmagan. Ishlab chiqarish sohasi ishlab chiqarish samaradorligi oshirishga yetarlicha tayyor bo'lmagan sharoitda, liberal bozor mexanizmlari yengil holda tashqi shoklarga ta'sir qildi. Natijada ayrim soholarda o'sish sur'ati sezilarli darajada pasaydi. Bu holat iqtisodiy leberalizatsiya bilan barqaror o'sish o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni yana bir bor ko'rsatdi. Liberallasuv siyosati iqtisodiy muvozanatni mustahkamlash qaroriga olib kelgan bo'lsa-da, ularning ijrosi real sektorning jadal o'sishiga yetarlicha hissa qo'shmadi. Bu holat xalqaro adabiyotlarda tilga olinadigan "real o'sish \neq nominal o'sish" tamoyiliga mos keladi (Deaton, 2013). Shuning uchun 2017 – 2020 yillardagi o'sishni baholashda ushbu davrda YaIMning o'sish sur'atidan tashqari inflyatsiya, real daromadlar, ishlash samaradorligi va investitsiyalar samaradorligi kabi omillar ham inobatga olinishi lozim.

2020-2022 pandemiya davri va iqtisodiy zarba: 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi global iqtisodiyotda keskin pasayishlarni keltirib chiqardi va bu jarayon O'zbekiston iqtisodiyotiga hamma sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 2017-2020 yillarda liberallasuv natijasida shakllanayotgan yangi iqtisodiy muhit pandemiya sharoitida jiddiy sinovdan o'tdi. Cheklov choralarning joriy etilishi, logistika zanjirlarining uzulishi va tashqi talabning qisqarishi natijasida iqtisodiy faollik sekinlashdi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra 2020 yilda iqtisodiy o'sish sur'ati avvalgi yillarga nisbatan keskin pasaydi. Agar 2019 yilda YaIM o'sishi nisbatan yuqori sur'atlarda bo'lgan bo'lsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich sezilarli darajada sekinlashdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ko'plab davlatlarda real YaIM qisqargan bir payta O'zbekistonda ijobiy o'sish saqlab qolingani bo'lsa-da, bu o'sishning sifati va tarkibi masalasi ochiq qolmoqda. Iqtisodiy faollikning pasayishi asosan xizmat ko'rsatish sohalarida kuzatildi. Tashqi savdo hajmining qisqarishi eksport tushumlariga ta'sir ko'rsatdi. Natijada iqtisodiy o'sish tarkibiy jihatdan notekis shakllandi.


Fiskal qo'llab-quvatlash: Bu davlatning iqtisodiyotni ragbatlantirish yoki barqarorlashtirish uchun byudjet siyosati (ya'ni soliqlar va davlat xarajatlari orqali) ko'radigan choralardir. Pandemiya sharoitida hukumat tomonidan kengaytirilgan fiskal siyosat yuritildi. Davlat budjeti xarajatlari oshirildi, ijtimoiy to'lovlar kengaytirildi, biznes subyektlariga soliq imtiyozlari va kredit yengilliklari berildi. Bu choralar qisqa muddatda iqtisodiy faollikni qo'llab-quvatlashga xizmat qildi. Biroq fiskal kengayish davlat qarzi hajmining oshishiga olib keldi. Qisqa muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida qo'llanilgan bu siyosat uzoq muddatli fiskal barqarorlik nuqtai nazaridan ma'lum xavflarni yuzaga keltirdi. Shuningdek, davlat aralashuvining ortishi bozor mexanizmlarining erkin ishlashini vaqtincha chekladi. Fiskal rag'batlantirish iqtisodiy pasayishning oldini olishda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, uning samaradorligi investitsiya yo'nalishlari va resurslarning taqsimlash sifatiga bevosita bog'liq bo'lgan.

Inflatsiya va aholi daromadlari: Pandemiya davrida inflatsion bosim kuchaydi. Bunga global ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar, import narxlarining oshishi hamda ichki fiskal kengayish omillari sabab boldi. Natijada nominal daromadlar oshgan taqdirda ham, real daromadlarning o'sishi cheklangan yoki ayrim qatlamlarda pasayishi kuzatildi. Real iqtisodiy o'sishni baholashda aynan aholi jon boshiga real daromad dinamikasi muhim ahamiyatga ega. Agar YaIM o'sishi inflyatsiya va aholining o'sish sur'ati bilan to'liq qoplanmasa, iqtisodiy o'sishning ijtimoiy samarasi cheklanadi. 2020-2022 yillar shuni ko'rsatdiki, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish o'zi yetarli emas – o'sishning sifat ko'rsatkichlari ham muhim hisoblanadi. Ushbu yillar oralig'idagi pandemiya davri O'zbekiston iqtisodiyoti uchun chidamlilik sinovi boldi. Iqtisodiy o'sishning keskin pasayishiga yo'l qoyilmagan bo'lsa-da, bu davr iqtisodiy strukturaning zaif jihatlarini ochib berdi. Davlatning faol fiskal siyosati qisqa muddatda barqarorlikni saqlab qolishga yordam berdi, biroq inflyatsiya bosimi va real daromadlar dinamikasi o'sishning sifat jihatidan baholanishini talab qildi. Shu nuqtai nazardan, pandemiya davridagi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari miqdoriy jihatdan ijobiy bo'lgan bo'lsada, uning sifat darajasi quyidagi omillar bilan baholanishi zarur. Birinchisi o'sish manbalari bo'lib, bu davrda o'sish asosan davlat xarajatlari va fiskal rag'batlantirish hisobiga shakllanganini ko'rishimiz mumkin, bu esa xususiy sektor faolligining tabiiy kengayishi emas, balki sun'iy qo'llab-quvvatlash natijasi ekanini bildiradi. Ikkinchi omil bu real sektor samaradorligi, mehnat unumdorligi va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish darajasi sezilarli darajada oshmagan, shu bois YaIM ning o'sishi iqtisodiy transformatsiya jarayonini to'liq aks ettirmaydi. Agar o'sish tarkibida xizmatlar yoki past texnologiyali ishlab chiqarish ustun bo'lsa, bu barqaror rivojlanish modelini shakllantirmaydi. Uchinchi, bu davr mobaynida inflyatsiya omili real daromadlarning o'sishini cheklaganini ko'rishimiz mumkin. Nominal ko'rsatkichlar oshgan bo'lsa-da, aholi jon boshiga real daromad dinamikasi o'sishning ijtimoiy samaradorligini pasaytirgan. Iqtisodiy o'sishning asosiy mezon – aholining farovonligi oshishidir. Agar real xarid qobiliyati barqaror o'smagan bo'lsa, iqtisodiy o'sishning ijobiy ta'siri cheklangan bo'ladi. To'rtinchi omil, tashqi qarzning ortishi va fiskal defitsitning kengayishi o'sishning kelgusidagi barqarorligiga nisbatan xavf omili sifatida namoyon bo'ladi. Qisqa muddatli rag'batlantirish uzoq muddatli makroiqtisodiy bosimga aylanishi mumkin. Shu sababli pandemiya davridagi iqtisodiy o'sishni miqdoriy ko'rsatkichlar asosida ijobiy baholash mumkin, ammo uning sifat jihatdan barqaror rivojlanish bosqichiga aylangani haqida qat'iy xulosa qilish murakkabdir. Mazkur davr iqtisodiy tizimining chidamliligini ko'rsatdi, biroq strukturaviy samaradorlik va real farovonlik o'sishi masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

2023 – 2025 davri: Barqaror o'sishmi yoki nominal kengayishmi?

2023-2025 yillar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun pandemiyadan keyingi tiklanish va yangi o'sish bosqichi sifatida boholangan. Rasmiy statistik ma'llumotlarga ko'ra, ushbu davrda yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o'sish sur'atlari ijobiy dinamikani saqlab qolgan. Biroq mazkur o'sishning mohiyatini aniqlash uchun nominal va reall ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqni alohida tahlil qilish zarur (2-rasm). 2025 yilga kelib YaIM hajmi sezilarli darajada oshganligi qayd etilmoqda. Bu o'sish bir tomondan investitsiyalar hajmining kengayishi, sanoat ishlab chiqarishning tiklanishi hamda xizmatlar sektorining faollashuvi bilan izohlanmoqda. Shuningdek, tashqi savdo hajmining o'sishi ham YaIM ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bunga qaramay nominal o'sish doimo iqtisodiy farovonlikning oshishini anglatmaydi. Chunki nominal ko'rsatkichlar narxlar darajasidagi o'zgarishlarni hisobga olmaydi.

Inflyatsiyani hisobga olgan holda real o'sish. 2023 – 2025 yillarda inflatsiya darajasi asta-sekin pasayish tendensiyasini ko'rsatgan bo'lsa-da, u hali ham iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada tushiruvchi omil sifatida qolmoqda. 2025 yil YaIM 145 mlrd dollardan oshgani ko'plab rasmiy saytlar tominidan e'lon qilingandi va shu bilan birgalikda shu yilgi inflyatsiya darajasi 7,3% ni tashkil qilgan. Agar 145 mlrd dollar bu faqat nominal YaIM o'sishi bo'lsa, real o'sish nechiga teng bo'lgan?



2-rasm. O'zbekistonning so'ngi 15 yillik YaIM ko'rsatkichlari (mlrd \$)

Manba: muallif tomonidan <https://www.worldometers.info/gdp/uzbekistan-gdp> saytidagi ma'lumotlardan foydalanib ishlab chiqilgan.

Ushbu formula orqali real YaIM ko'rsatkichlari aniqlanadi.

$$Real\ YaIM = \frac{Nominal\ YaIM}{1 + inflyatsiya\ darajasi}$$

$$Real\ YaIM = \frac{145}{1 + 0,073}$$


$$Real\ YaIM \approx 135,1 \text{ milliard dollar}$$

Ko'rib turibmizki, real YaIM va nominal YaIM orasida qariyb 10 milliard dollarlik farq bor. Real YaIMni baholash shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy kengayish mavjud, biroq uning o'sish sur'ati nominal ko'rsatkichlarga nisbatan pastroq. Bu esa iqtisodiy o'sishning ma'lum qismi narxlarning oshishi hisobiga shakllanganini anglatadi.

Bu diagramma 2017-2019 yillar oralig'ida inflyatsiya darajasi juda yuqorilaganini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda mazkur davrda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari undan oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada tushganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa mazkur davrda manfiy iqtisodiy o'sish bo'lganini anglatadi. Ushbu davrgacha bo'lgan eng yuqori YaIM ko'rsatkichlari 2015-2016 yillarda qayd etilgan bo'lsa, besh yil davomida YaIM miqdori 2016 yildagiga qaraganda past bo'lgani sababli sekin-asta davlat iqtisodiyoti tashqi qarzlarga tayana boshladi. Biroq buning sababi ushbu davrdagi iqtisodiy liberallashtirish siyosati bo'ldi, ya'ni shu davrda davlatimiz rahbari asosiy e'riborni iqtisodiy tarmoqlar va sohalarni qayta isloh qilishga qaratdi. Buni muhtaram prezidentimiz

Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning har bir yilgi vazifalarni aniq belgilashida ko'rishimiz mumkin. Masalan 2017 yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini" yili deb e'lon qilindi va shu borada ko'plab ishlar olib borildi. Shundan so'ng ketma-ket uch yil tadbirkorlikni va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabi maqsadlar bilan bog'liq bo'ldi. Buning samarasi o'laroq 2020 yildan bo'shlab yurtimizda sezilarli o'sish ko'rsatkichlari qayd etilmoqda va endilikda iqtisodimiz barqaror iqtisodiy o'sishga intila boshladi. Barqaror iqtisodiy o'sish odatda iqtisodiyot tarkibida sifat jihatidan o'zgarishlar bilan birga kechadi. Ya'ni, yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarish, innovatsion faoliyat, sanoat diversifikatsiyasi va eksportning murakkablashuvi kabi jarayonlar kuzatilishi

lozim. 2023-2025 yillarda ayrim sohalarda modernizatsiya jarayonlari kuzatilgan bo'lsa-da, iqtisodiyotning xomashyo va past qo'shilgan qiymatli tarmoqlarga qaramligi to'liq bartaraf etilgani yo'q. Strukturaviy transformatsiya sekin sur'atlarda davom etmoqda. Shu sababli mazkur davrni mutlaq barqaror o'sish bosqichi deb baholashdan ko'ra, uni iqtisodiy kengayishning davom etayotgan, biroq hali sifat jihatidan to'liq mustahkamlanmagan bosqichi sifatida tavsiflash maqsadga muvofiqdir.




3-rasm. Yillik inflatsiya darajalari (2010-2025)

Manba: muallif tomonidan <https://data.worldbank.org/> saytidagi ma'lumotlardan foydalanib ishlab chiqilgan.

Mavjud iqtisodiy o'sishni ilmiy nazariya bilan taqqoslash. Iqtisodiy o'sish deganda iqtisodiy ravnaqni, ya'ni iqtisodiyotning dinamik rivojlanishini, yaratilgan tovarlar va xizmatlarning ko'payib borishini tushunamiz. Shunday ekan iqtisodiy o'sish milliy iqtisodiyot, ya'ni muayyan mamlakat miqyosidagi iqtisodiy taraqqiyotni ifoda etadi va YaIMning ko'payishini bildiradi. YaIM hajmining ortishi iqtisodiy o'sishning umumlashgan pulda ifodalangan ko'rsatkichi hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishga davriy jihatdan yondashadigan bo'lsak, u bir xil sur'atda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari ham bo'lgan. Biroq uzoq muddatli tarixiy bosqichlarga qarasaq jahon yoki milliy davlatlar iqtisodiyotida barqaror o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiy manzarasi hosil boladi. Shunday ekan yurtimiz iqtisodiyoti ba'zi bir necha yillik holatlarda sust o'sishni ko'rsatgan bo'lsa-da, bu uzoq muddatli o'sish uchun sezilarli darajada ijobiy ta'sir qiladi. Iqtisodiy o'sishning turli xil modellari mavjud bo'lib, asosiylaridan biri bo'lgan Solow modelidir. Bu modelda uzoq muddatli iqtisodiy o'sish asosan kapital jamg'arilishi, mehnat resurslari o'sishi va texnologik taraqqiyot orqali shakllanadi deyilgan. Ushbu model nuqtai nazaridan O'zbekistonning yaqin yillardagi iqtisodiy dinamikasini baholaymiz. Bunga ko'ra 2017-2025 yillardagi iqtisodiy o'sish asosan investitsiyalar hajmining ortishi va davlat harajatlari kengayishi hisobiga yuzaga kelgani kuzatiladi. Bu esa kapital jamg'arilishi omilining ustunligini ko'rsatadi. Shu bilan birga mehnat unumdorligi va yuqori texnologik ishlab chiqarish ulushining keskin oshgani yoki iqtisodiy o'sishga yuqori darajada ta'sir qilgani haqida qat'iy dalillar yetarli emas. Shu bois O'zbekistonda kuzatilayotgan o'sish hali to'liq texnologik omillar bilan mustahkamlangan barqaror o'sish bosqichiga o'tmagan, balki kapital kengayishiga asoslangan o'sish xususiyatiga ega.

O'zbekiston iqtisodiy o'sishining yaqin istiqboldagi prognozi (2026-2030). Mavjud makroiqtisodiy tendensiyalarni hisobga olgan holda, yaqin 3-5 yillik istiqbolda O'zbekiston iqtisodiyotida o'sish sur'atlari ijobiy darajada saqlanib qolishi kutiladi. Investitsiyalar hajmining ortishi va infratuzilma loyihalarining davom etishi kapital jamg'arilishini qo'llab-quvatlaydi. Biroq inflyatsion bosim to'liq bartaraf etilmasligi real o'sish sur'atini cheklovchi omil bo'lib qolishi mumkin. Agar pul-kredit siyosati qat'iy va muvozanatli olib borilsa, real YaIM o'sishi barqaror tus olishi ehtimoli yuqori.



4-rasm. YaIMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (yanvar, sentyabr)

Manba: https://stat.uz/img/press-relizlar/analitika-vvp_zb-lotin_p95454.pdf saytidagi ma'lumotlardan foydalanildi.

Aniqroq tahlil qiladigan bo'lsak hozirgi kunda yurtimiz hududida qurilish sohasida juda ko'p yirik loyihalar amalga oshirilmoqda va bu investitsiyalarning ko'payganidan dalolat beradi. Mazkur holat qisqa muddatli tez o'sishni ta'minlaydi. Har yilgi YaIM ko'rsatkichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, qurilish sohasiga katta e'tibor berilib, bu soha qo'llab-quvatlangandan so'ng YaIM ko'rsatkichlari birdan yuqori o'sishni namoyon etganini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga agarda davlat iqtisodiyotining katta qismi shu sohaga bog'lanib qolsa bu kelajakda ba'zi salbiy oqibatlariga olib kelishi ehtimoli bor. Masalan ishsizlik darajasi oshib ketishi, investitsiyalarning keskin kamayishi, aholi daromadi pasayishi va davlat budjetida ham muammolar kuzatiladi ya'ni soliq tushumlari kamayadi va ijtimoiy xarajatlar (nafaqa, yordam) oshadi. Bunday muammolarni sezilarli darajada pasaytirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi. Iqtisodiyotni ko'plab sohalarga bog'lash, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, inson kapitaliga investitsiya qilish ya'ni ta'lim tizimini rivojlantirish, yetuk mutaxassislar tayyorlash va innavotsion muhit yaratishga e'tibor qaratish. Shundagina qurilish sohasida bo'ladigan ma'lum muammolar davlat iqtisodiyotiga kuchli ta'sir o'tkazmaydi, sababi iqtisodiyotning boshqa sohalari iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Yuqoridagi diagrammada O'zbekiston YaIMning so'ngi yillardagi tarmoqlar bo'yicha tarkibi ko'rsatilgan. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur ko'rsatkichlar saqlab qolinib, sifatli

iqtisodiy o'sishga e'tibor qaratilsa, yaqin yillarda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishimiz mumkin (4-rasm.).

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonning so'ngi 20 yillik iqtisodiy o'sish jarayoni tahlil qilinib, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ilmiy nazariyalar bilan taqqoslandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakat iqtisodiyotida o'sish sur'atlari ijobiy dinamikani namoyon etgan bo'lsa-da, ushbu o'sishning mohiyati va sifati alohida yondashuvni talab etadi. Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiyotida o'sish mavjud, biroq uni to'liq iqtisodiy rivojlanish bosqichi sifatida baholash uchun real daromadlar o'sishi, strukturaviy diversifikatsiya va innovatsion faollik ko'rsatkichlari yanada mustahkamlanishi lozim. Kelgusi yillarda iqtisodiy siyosat kapital kengayishidan samaradorlik va bilimga asoslangan modelga o'tishni ta'minlansa, barqaror va sifatli rivojlanish uchun zarur shart-sharoit shakllanishi mumkin.

Adabiyotlar/ *Литература/References:*

- Abduvoxidov, A.A. v.b. (2022). *Iqtisodiy o'sish*. Toshkent: Ziyo nashr.
- Bakirov, X. and Qulliyev, U. (2023). *Global raqobatbardoshlik indeksi (Global Competitiveness Index) bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atiga erishgan davlatlar tajribasi tahlili*. *Iqtisodiyot: Tahlillar va Prognozlar*, 3(23), pp. 4-12.
- Ergashev, R.X. and Xamrayeva, S.N. (2021). *Iqtisodiy o'sish*. Toshkent: Intellect.
- Havranek, T., Horvath, R. and Zeynalov, A. (2016). *Natural Resources and Economic Growth: A Meta-Analysis*. *World Development*, 88.
- Jo'rayev, T.T. (2017). *Iqtisodiyot nazariyasi (O'quv qo'llanma)*. Toshkent: Fan va texnologiya.
- Karimov, I.A. (2001). *Vatan ravnaqi uchun har birimiz masulmiz*. Toshkent: Xalq so'zi.
- Kasimov, I., Mamatov, B. and Mahmudov, Z. (2022). *Markaziy Osiyoda tog'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar*. *Iqtisodiyot: Tahlillar va Prognozlar*, 3(19), pp. 153-163.
- Kuznets, S. (1966). *Modern Economic Growth: Rate, Structure and Spread*. New Haven: Yale University Press.
- Lucas, R.E. (2002). *Lectures on Economic Growth*. Cambridge: Harvard University Press.
- Mirziyoyev, Sh.M. (2017). *Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak*. Toshkent: O'zbekiston.
- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2024). *YalMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi*. [online] Available at: https://stat.uz/img/press-relizlar/analitika-vvp_zb-lotin_p95454.pdf [Accessed 28 Apr. 2026].
- Rustamova, F.F. (2025). *O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos xususiyatlari*. *Tadqiqotlar*, 76(3), pp. 120-131.
- Solow, R.M. (2000). *Growth Theory: An Exposition*. Oxford: Oxford University Press.
- Teixeira, A.C. and Queiros, S.S. (2016). *Economic growth, human capital and structural change: A dynamic panel data analysis*. *Research Policy*, 45(8), pp. 1636-1648.
- Usmonov, M.D., Qarshiyev, A.S. and Rashidov, Z.I. (2024). *Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar*. *Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali*, 2(2), pp. 81-86.
- Vintilă, A. (2024). *Analysis of the Determinants of Economic Growth: An Empirical Study on the EU-28 Countries*. *Journal of Eastern Europe Research in Business and Economics*. doi:10.5171/2024.551086.
- World Bank (2024). *Gross Domestic Product*. [online] Available at: <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD?locations=UZ> [Accessed 28 Apr. 2026].
- Yusupova, Sh.A. (2026). *O'zbekistonda bank kreditlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik*. *Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali*, 9(02), pp. 191-195.